

Yoshlar bizning kelajagimiz...

2021-yil 8-may kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 1-bosqich magistranti M.Xurramov tomonidan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi 4-maktabning bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan uchrashuv tashkil qilindi uchrashuvda Prezidentimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar va ulardan oqilona foydalanish borasidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi.



Bundan tashqari bitiruvchi o'quvchilarning oliy ta'lim olishlarida oliy ta'lim muassasini tanlash, o'zlari qiziqishlariga mos bo'lgan mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishni davom ettirishda nimalarga e'tibor berish kerakligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi. Institutimizda talabalarning ta'lim olishlari, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari, o'z iqtidorlarini namoyon etishlari bo'yicha yaratilgan keng imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berildi. Uchrashuv davomida bitiruvchi sinf o'quvchilari tomonidan berilgan institutimiz haqidagi savollarga javoblar berildi.

TIQXMMI matbuot xizmati